

**YOSHLAR O'RTASIDA IJTIMOY TARMOQLARDA  
KUZATILAYOTGAN IMLOVIY XATOLIKLAR**

**Axatova Sevinch Bahriiddin qizi**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi*

*1-kurs 2-24- guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Yoshlar orasida turli xildagi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kundan kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tarmoqlardan foydalanish jarayonida uchraydigan imloviy xatoliklar asosiy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu maqolada bunday xatoliklarning kelib chiqish sabab va oqibatlari, ularni bartaraf etish usullari haqida fikr yuritiladi. Hamda ayrim tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy tarmoq, imloviy xatolik, qisqartma va emojlar, grammatik tuzilma, yondashuv.

Bugungi axborotlashgan zamonaviy dunyoda yoshlarni ma'naviy yetuk, ruhan sog'lom qilib voyaga yetkazish mamlakatimiz, xususan, ta'lif va tarbiya tizimimiz oldida turgan asosiy va bosh maqsad hamda vazifalardan biri hisoblanadi. Tobora jadallashayotgan davrda yoshlar ongini turli xildagi ijtimoiy tarmoqlar egallab bormoqda. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarda kuzatilayotgan imloviy xatoliklar asosiy diqqat e'tiborimizni tortmoqda. Xo'sh, aslida yuzaga kelayotgan imloviy xatoliklarning sabablari nimada? Quyida ana shu xatoliklarni keltirib chiqaruvchi ayrim jihatlar bilan tanishamiz.

**Imlo xatoliklarining sabablari:**

**1. Tezkor yozish odati:** Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez va qisqa vaqt ichida fikrlarini yozib, ular shuningdek, ulashishga odatlangan. Bu holatda ular imlo qoidalariga ko'p e'tibor bermasdan, tezda yozishga intilishadi. Bu vaziyatda yoshlar "v" harfi o'rniga inglizcha "w" harfidan yoki ch harfi o'rniga inglizcha "c" harfidan foyladanadilar.

**2. Mobil qurilmalar klaviaturasi va avtomatik to'ldirish:** Mobil telefon klaviaturalari kichikligi sababli ba'zi so'zlar noto'g'ri teriladi. Shuningdek, avtomatik to'ldirish funksiyalari noto'g'ri so'zlarni kiritishi mumkin. Masalan, "maktab" so'zi o'rniga "mk" yoki "bilim" so'zi o'rniga "blm" shaklidagi so'zlar qo'llaniladi.

**3. Qoidalarni bilmaslik yoki unutish:** Ko'pgina yoshlar maktabda o'rgangan imlo qoidalarni tezda unutishadi yoki chuqur bilishmaydi.

**4. Shevalar va til o'zgarishi:** Ijtimoiy tarmoqlarda har xil sheva va lahjalarni ishlatish ko'paygan. Bu esa o'ziga xos yozish uslublarini yaratishga olib keladi va adabiy til qoidalardan uzoqlashishga sabab bo'ladi. Ayniqsa, qarluq lahjasida yozishishlar soni ko'p. Masalan, kevotti-ketivotti kabi.

Nafaqat ijtimoiy tarmoqlarda, balki turmush hayotimizda imloviy xatoliklar bir qancha oqibatlarni yuzaga chiqaradi. Bularidan:

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

**1. Adabiy tildan uzoqlashish:** Yoshlar imlo qoidalariga rioya qilmagan holda yozganda, adabiy til qoidalarini unutib qo'yishadi va bu ularning so'z boyligini kamaytiradi va yoshlar o'z o'zidan chet el so'zlaridan foydalana boshlaydi, bu esa tilning zaiflashishiga olib keladi.

**2. Savodxonlik darajasining pasayishi:** Imlo qoidalariga amal qilmaslik savodxonlik darajasining pasayishiga olib keladi va kelajakda ham bu muammo kuchayishi mumkin.

**3. Kasbiy va rasmiy yozishmalarda muammolar:** Ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri yozish odati kundalik hayotda ham davom etishi mumkin, bu esa kasbiy va rasmiy yozishmalarda xatoliklar qilish ehtimolini oshiradi.

Barcha masalaga yechim bo'lganidek, imloviy xatoliklarni ham mua bartaraf etish yo'llari mavjud. Quyida biz ana shulurni ko'rib chiqamiz.

**1. Ta'lim sifatini oshirish:** Ta'lim tizimida, xususan, maktablarda ona tili va adabiyot darslarini ko'proq tashkil qilish va samarali o'tkazish, imlo qoidalarini chuqr o'rghanishga ahamiyat berish kerak.

**2. Targ'ibot va ko'rsatmalar:** Ijtimoiy tarmoqlarda to'g'ri yozish qoidalari va grammatik xatolarni kamaytirish bo'yicha turli kampaniyalar o'tkazish yoshlarni savodxonlikka undaydi.

**3. Texnologiyadan foydalanish:** Mobil ilovalar va brauzerlarda grammatikani tekshirish dasturlarini ommalashtirish foydali bo'lishi mumkin.

**4. Yozma amaliyotlarni ko'paytirish:** Yoshlar uchun qiziqarli yozma amaliyotlar, masalan, ijodiy yozish, insho yozish kabi faoliyatlarni ko'paytirish ularda imlo qoidalariga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Yoshlar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarda imloviy xatoliklarga oid kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu xatolar bir necha omillar tufayli yuzaga keladi:

**1. Notanishlik yoki e'tiborsizlik:** Yoshlar ko'pincha tildagi rasmiy imlo qoidalariga e'tibor qaratmay, qulaylik uchun qisqa shakllar yoki noto'g'ri yozilgan so'zlardan foydalanadilar. Tez yozish va javob berishga intilish natijasida e'tiborsizlik tufayli ham xatolar ko'payadi.


**2. Slang va qisqartmalar:** Yoshlar o'rtasida mashhur bo'lgan so'z qisqartmalari yoki yangi jargonlar imlo xatolariga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, inglizcha so'zlarni o'zlashgan yoki o'ziga xos "lotincha" uslubda yozish tendentsiyasi ham kuzatiladi.

**3. Texnik qulayliklar ta'siri:** Avtoto'ldirish va avtomatik imlo tuzatish kabi texnik vositalar ba'zida noto'g'ri so'zlarni taklif qilib, xatolarning tarqalishiga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda imloviy xatoliklar ko'payib borayotgan bir paytda, bu masalani e'tibordan chetda qoldirmaslik muhim. To'g'ri yozishni targ'ib qilish, savodxonlikni oshirish va til madaniyatini saqlash yoshlar kelajagi uchun juda zarur. Shu orqali nafaqat ijtimoiy tarmoqlarda, balki hayotning barcha sohalarida savodli va madaniyatli yozish odatiga ega bo'lgan avlodni tarbiyalashimiz mumkin. Xulosa o'rniga shuni aytish joizki, til xalqning yuragi, agar shu birgina yurak noto'g'ri ishlay boshlasa boshqa organlarga ham ziyon yetishib mumkin. Shunday ekan tilni asrash va avaylash o'ta muhim masalalardan biridir. Yoshlarni har jahbada savodli qilish xalqning qo'lida. Kelajak yoshlar qo'lida!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayeva Q va boshqalar, “Savod o‘rganish darslari”, Toshkent 1996
2. A.Pirniyazova “Boshlang‘ich sinf ona tili o‘qitish metodikasi”, Toshkent 2018
3. Karima Qosimova “Ona o‘qitish metodikasi” Toshkent 2009



321

